

YANGI O‘ZBEKISTONDA – YANGI BAHOLASH TIZIMI

Bekdurdiyev Zufarbek Shodlik o‘g‘li

Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi tizimidagi Qo‘shko‘pir tuman

ixtisoslashtirilgan maktabning matematika fani o‘qituvchisi

zufarbekbekdurdiyev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10784356>


Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida qo‘llanib kelinayotgan xalqaro baholash tizimini joriy etilishi hamda yurtimizdagi ta‘lim tashkilotlarida bu yangi tizimini joriy qilinishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: yangi baholash, xalqaro tajriba, formativ, summativ, bilish, qo‘llash, mulohaza.

Kirish. Hozirgi kunda ta‘lim tizimida ham ko‘plab innovatsion g‘oyalar, xalqaro tajribalar qo‘llanib kelinmoqda. Yurtimizdagi ta‘lim maskanlarida ham xalqaro ta‘lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan yangi tizimlar amaliyotga joriy qilinmoqda. Bunga misol qilib aytadigan bo‘lsak, yangi baholash tizimi hozirgi kunda ko‘plab rivojlangan davlatlarda keng qo‘llanib kelinmoqda. O‘quvchilarni baholashda formativ va summativ baholash tizimi ishlab chiqilgan. Har chorakda olinadigan nazorat ishlari test shaklida bo‘lib, o‘quvchilarni fan bo‘yicha egallagan bilimlarini 3 turga ajratilgan holda baholab boriladi. Choraklik yakunida bo‘ladigan nazorat materiallari markazlashgan tizim orqali nazorat ostida olib boriladi. O‘quvchilar har chorakda, har bir fandan 100 ballik tizimda baholanib boriladi. Bunda summativ ball - 90 ballni tashkil qilsa, formativ ball – 10 ballni tashkil qiladi.

Asosiy qism. Yangi baholash tizimi dastlab, Prezident maktablarida joriy qilindi. So‘ngra bu baholash tizimi Ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalari agentligi tizimida tashkil qilingan maktab-internatlari va maktablarda ham yo‘lga qo‘yildi. Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan 2023-2024 o‘quv yilidan 500 ta umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarida ham yangi baholash tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bunda agentlik tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat va maktab o‘qituvchilaridan trener o‘qituvchilar shakllantirilib, yangi baholash tizimiga o‘tgan maktablarda trener o‘qituvchi sifatida ish-faoliyatlarini boshlashdi. Bunda har bir tumandan tanlab olingan maktablarga ixtisoslashtirilgan maktablar tayanch maktab sifatida belgilandi.

Yangi baholash tizimida har bir fandan o‘quvchi 100 ballik baholash tizimida baholanadi. 50 ball chorak davomida olingan bob bo‘yicha summativ baholar yig‘indisidan tashkil topgan. Bunda chorak davomidagi bob yakunlari bo‘yicha nazoratlar olib boriladi. Bu summativ baholash loyiha ishi, laboratoriya ishi, amaliy mashg‘ulot kabi kichik turlarga ham bo‘linadi. Chorak yakunida 40 ballik nazorat ishi olinadi. Qolgan 10 ballni formativ baho sifatida fan o‘qituvchisi baholaydi. Bunda 10 ballning 4 balli o‘quvchining uy ishlarini bajargani uchun, 6 balli esa darsda ishtiroki uchun qo‘yiladi.



Bu yerda 90 ball – summativ baholar yig‘indisi ya‘ni 50 ball – BSB (bo‘lim bo‘yicha summativ baholar) hamda 40 ball – ChSB (choraklik bo‘yicha summativ baho)

10 ball - formativ ballni tashkil qiladi.

Choraklik summativ baholar adolatli o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida har chorakda bo‘ladigan ChSB nazorat materiallari Pedagogik mahorat va Xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan tuziladi va tekshiriladi. Bu yangi baholash tizimida inson omilini kamaytirish maqsadida ChSB nazoratlari skaner qilingan holda maxsus test tekshirish qurilmalarida tekshirib baholanadi.

Test materiallari ham xalqaro talab darajasida tuziladi.

- Bilish
- Qo‘llash
- Mulohaza

Bunda asosan o‘quvchining fan bo‘yicha olgan bilimlari bilish, qo‘llash hamda mulohaza turlariga ajratilgan holda tekshirib boriladi. Bunda testlarning 15 foizi bilish bo‘yicha, 70 foizi qo‘llash bo‘yicha hamda 15 foizi mulohaza yuritish bo‘yicha baholanishi ko‘rsatib o‘tilgan. Test turlariga qarab to‘g‘ri javob uchun belgilangan ball miqdori ham o‘zgarib boradi.

Xulosa. Yangi baholash tizimi o‘quvchilarni baholashda inson omilini kamaytirish uchun juda yaxshi xizmat qiladi. Belgilangan maksimal ballning 90 foizini o‘quvchining o‘zi chorak davomida to‘plab boradi. 10 foizini esa fan o‘qituvchisi tomonidan qo‘yilishi belgilangan. Bunda o‘quvchilar fan bo‘yicha yuqori ball olishi o‘quvchining harakatiga bog‘liq qilib qo‘yilgani, o‘qituvchi o‘quvchining bahosiga sun‘iy tas‘ir ko‘rsata olmasligi belgilab qo‘yilgan. Muhtaram prezidentimiz tashabbuslari bilan keyingi o‘quv yilidan ham yana 1000 ta maktab yangi baholash tizimiga o‘tkazilishi belgilab berildi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yangi baholash tizimini, yangi O‘zbekiston uchun keng joriy qilish ustuvor maqsad qilib qo‘yilgan.

References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda uning tizimdagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-79 Farmoni.
2. “Yangi baholash tizimida inson omili minimallashtiriladi” Agentlik Axborot xizmati.
3. “Yangi baholash tizimi amaldagi baholashdan qanday farq qiladi?” Respublika ta‘lim markazi facebook sahifasidan.